

**BADIIY MATN TARKIBIDAGI BIRIKMA METAFORALAR
TAHLILI**

Muslimjon Nasirov

Qo'qon DU, O'zbek tili va adabiyoti

kafedrasi o'qituvchisi

Muxtasarxon Valijonova

Qo'qon DU, talaba

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikdagi sema (to'g'ridan-to'g'ri ma'no) va ko'chma ma'no (obrazli ma'no) tushunchalari o'rtasidagi farq, ularning tildagi vazifasi va matndagi ifodaviy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Nazar Eshonqul asarlari obyekt sifatida olinib, matndagi metaforik bog'liqliklar, kognitiv birikmalar va obrazlilik manbalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, metafora, kognitiv metafora, semantic inersiya, badiiy matn, sema, o'z ma'no, ko'chma ma'no, referent.

Badiiy matnning asosiy vazifasi — nafaqat voqeani yetkazish, balki o'quvchida obrazli tasavvur uyg'otish, ma'no qatlamlarini chuqurlashtirishdir. Bu jarayonda **ko'chma ma'no** va **metaforalarning** roli beqiyos. Tilshunos D. Xudoyberganova tomonidan taklif etilgan "**semantik inersiya**" atamasi badiiy matn semantikasini chuqurroq tushunishda muhim ilmiy tushuncha sifatida maydonga chiqadi.

Uning ta'rificha, matn boshida ko'chma ma'noda ishlatilgan birikma keyingi jumalarga ham o'z ta'sirini o'tkazib, kogerentlik asosida metaforik mazmunni davom ettiradi. Bu hodisa — **semantik inersiya** — badiiy matnning ichki mantiqiy va obrazli yaxlitligini ta'minlovchi muhim vositadir.

Mazkur maqolada badiiy matnda semantik inersiyaning funksional ahamiyati, u orqali yuzaga keluvchi semantik uzluksizlik, obrazlarning

tarmoqlanishi va o'quvchi tafakkuriga ta'siri keng yoritiladi. Misollar orqali bu hodisaning ijodiy va kognitiv mexanizmlari tahlil qilinadi.

Tadqiqotchi D.Xudoyberganova birikma – metaforalarni tadqiq etar ekan, tilshunosligimizga yana bir yangi termin - “semantik inersiya” terminini kiritishni taklif etadi. Tadqiqotchi ushbu termini shunday izohlaydi: “Matn boshlanmasida ko'chma ma'noda qo'llangan so'z birikmasi matnning keyingi jumalari semantikasiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi, ya'ni kogerentlik talabi bilan takrorlangan ko'chma ma'noli birikmalar navbatdagi jumalarga ham metaforik mazmunni olib o'tadi”.

Darhaqiqat, Nazar Eshonqul asarlarida ham “semantik inersiya” natijasida paydo bo'lgan bir qancha kognitiv birikma – metaforalarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, “Hammamiz ham kuchli va buyuk bo'lishni istaymiz, shuning uchun ham umr binosini barpo qilamiz,unga abadiyatni suyay oladigan ustunlar qo'yamiz,ammo bir kun aqlimizni yig'ib olib qarasak,biz yaratgan o'tov qurilmasdan turib vayron qilingan bo'ladi.” (“Qora kitob”). Ushbu parchada keltirilgan umr binosi (inson hayoti) referenti keyingi jumalardan barpo qilmoq (yashamoq), vayron qilingan (xato qilingan) birikmasini taqazo qilishi aynan semantik inersiya natijasidir. “Shu sababli uni har kuni ko'rgim kelar, ko'nglim o'tinxonasida olov bo'lishga shay turgan chog'larni kovlab, sovutardim.” (“Qora kitob”). Ushbu parchada keltirilgan ko'ngil o'tinxonasi (ko'ngil) referenti keyingi jumalardan chog'lar (his - tuyg'ular), sovutardim (voz kechmoq) birikmasini taqazo qilishi aynan semantik inersiya natijasidir.“Shu lahzalarda ezgulikning naq chegarasini aniqlashim, Iblis oldidagi ojizligimdan saboq chiqarishim, hech qursa qolgan umrimda g'ofillik to'rini yorib tashlagim kelardi.” (“Qora kitob”). Ushbu parchada keltirilgan g'ofillik to'ri(g'ofillik) referenti keyingi jumalardan yorib tashlamoq (voz kechmoq) taqazo qilishi aynan semantik inersiya natijasidir. “Qandaydir sehrli kuch ularning ko'ngillaridagi norozilik iplarini uzib tashalardi: odamlar ishlashar, nima berishsa qanoat qilishar, teatrga, kinolarga borishar, qo'shiq ham eshitishardi, biroq g'alayon qilishmasdi.” (“Bitik”). Ushbu parchada keltirilgan norozilik iplari (noroziilik) referenti keyingi jumalardan uzib tashlamoq (voz

kechmoq)birikmasini taqazo qilishi aynan semantik inersiya natijasidir. “Muhabbat - inson qalbida ochilgan loladir. Agar u so‘lsa, umrning o‘zi ham so‘ladi... To‘rt yildan beri ko‘nglimdagi lolalar chaman-chamn bo‘lib ochilib ketdi.” (“Oq alanga”). Ushbu parchada keltirilgan lola (muhabbat) referenti keyingi jumladan so‘lmoq (yo‘q bo‘lmoq), ochilib ketmoq (paydo bo‘lmoq) birikmasini taqazo qilishi aynan semantik inersiya natijasidir. Masalan, “Goho yuzing gul-u, sochlaring bu oppoq gulni xovuchlab turgan qat-qat gulbarglarga o‘hshab ketadi; gulbarglar bunchalik nafis gulni tebratganidan ba’zan to‘lg‘onib-to‘lg‘onib qo‘yadi. To‘lg‘onar ekan gulbarg qatlari, ora gulning nozik bandi ko‘rinib ketadi” (“Oq alanga”). Ushbu parchada keltirilgan gul (inson yuzi) referenti keyingi jumladan gul barglari (sochlari), gulning nozikbandi(qizning qomati) birikmasini taqazo qilishi aynan semantik inersiya natijasidir. Masalan, “O‘quvchini avval maftun etib, so‘ng uni vahimalar ila g‘ovg‘oga solishi, uning ko‘ngil qasrlariga qo‘rquv va vasvasa yalovlarini ilish, shusiz ham so‘qmoqlarini chakalak bosgan umrining dalalariga tushkunlik va umidsizlik urug‘ini ekish, shusiz ham qovurdoq bo‘lgan yurakni sahifalar tovasida qovurish shartmidi?” (“Qalb to‘zoni”). Ushbu parchada keltirilgan ko‘ngil qasrlari (ko‘ngil) referenti keyingi jumladan qo‘rquv va vasvasa yalovlari (qo‘rquv va vasvasa), ilmoq (solmoq); umr dalalari (inson umri) referenti keyingi jumladan tushkunlik va umidsizlik urug‘i (tushkunlik va umidsizlik), ekmoq (solmoq) birikmasini taqazo qilishi aynan semantik inersiya natijasidir.

Badiiy matnda **semantik inersiya** — ko‘chma ma’noda boshlangan birikmaning keyingi jumladan ham metaforik va semantik yukni saqlab qolishi — badiiy tilning chuqurlik, bog‘liqlik va ta’sirchanlik darajasini belgilovchi muhim til hodisasidir. Bu hodisa o‘quvchining fikriy jarayoniga ta’sir ko‘rsatib, matndagi obrazlarning uzluksiz rivojlanishini ta’minlaydi, umumiy semantik muhitni mustahkamlaydi. Nazar Eshonqul kabi adiblarning matnlarida bu hodisa nafaqat badiiy vosita sifatida, balki kognitiv struktura va ijodiy til konstruksiyasi sifatida ham faol ishlatiladi. Har bir metaforik boshlanish matn davomida boshqa obrazlar, iboralar va kontekstlar orqali semantik kuchini yo‘qotmasdan davom etadi.

Bu esa matnni silliq, yaxlit va kuchli semantik tuzilmaga aylantiradi.

Shuningdek, o'quvchi ongida ketma-ket bog'lanib boruvchi obrazlar tizimi shakllanadi. Shunday qilib, **semantik inersiya** — badiiy matnning mazmuniy chuqurligi va ifodaviy yaxlitligini ta'minlovchi asosiy mexanizmlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013.
2. Eshonqul N. Yalpiz hidi. – Toshkent: “Sharq”, 2008.
3. Eshonqul N. Shaftoli guli. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2011.
4. Yuldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.
5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzah, 2006.
6. Nasirov, Muslimjon. "ASSOCIATIVE RELATIONSHIPS IN CLASSICAL POETIC TEXTS." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036 11.09 (2022): 349-352.
7. Nasirov, M., and Malikaxon Nasirova. "METAPHORES IN THE WORKS OF NAZAR ESHONQUL." *Gospodarka i Innowacje*. 42 (2023): 18-22.
8. Nasirov, Muslimjon. "ANALYSIS OF METAPHORICAL MEANINGFUL UNITS IN A LITERARY TEXT (On the example of the works of Nazar Eshonkul)." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036 11.09 (2022): 342-344.